O’zbekiston mahsulotlari jahon bozorida

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik instituti va Singapurning “JIT Engineering & Solitions Pte.Ltd” kompaniyasi bilan O‘zbekistonda yaratilgan yuqori samarali payvandlash materiallari va texnologiyalarini Hindiston va Janubiy Osiyo mamlakatlari bozorida ilgari surish va tijoratlashtirish to‘g‘risida kelishuv imzolandi. Kelishuvga muvofiq Materialshunoslik instituti mahalliy va ikkilamchi xom ashyolar asosida, mas’uliyatli konstruksiyalarda (ko‘priklar, binolar, texnologik inshootlar va qurilmalar) ishlatiladigan alyuminiy qotishmalari, zanglamas po‘lat va boshqa metallar uchun yuqori samarali payvandlash materiallarini yaratish va sinovlarini o‘tkazish bo‘yicha ishlarni amalga oshiradi. “JIT Engineering & Solitions Pte.Ltd” kompaniyasi esa yangi mahsulotlar va texnologiyani xalqaro bozorga olib chiqish va ilgari surish ishlari bilan shug‘ullanadi.